

**“O‘ZBEK VA INGLIZ” TILIDA TARJIMA MUAMMOLARI**

*Shahrisabz davlat pedagogika institut “Pedagogika” fakulteti*

*Matematika va Informatika yo‘nalishi*

*Talaba: Bo‘riyeva Gullola Ulug‘bek qizi*

*Ilmiy maslahatchi: Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li*

*abdimurodovdoston@shdpi.uz*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbek va Ingliz tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilidan ingliz tiliga yoki aksincha tarjima qilishda tarjimonlar grammatika, leksik tizim, madaniy tafovutlar va iboralarning turlicha ifodalanishi kabi qiyinchiliklarga duch keladilar. Ingliz va O‘zbek tillarining grammatik strukturalaridagi farqlar tarjima jarayonini murakkablashtiradi, chunki bu tillar sintaksis, so‘z tartibi va grammatik qoidalarning qattiq qo‘llanish darajasi bo‘yicha bir-biridan ancha uzoqlashgan. Maqolada ushbu muammolarni yengish uchun tarjimonlarga til va madaniyat haqida chuqur bilimlar talab qilinishi ta‘kidlanadi. Shuningdek, tarjima sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va kompyuter dasturlaridan foydalanish, til o‘rganishni rivojlantirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish kabi usullar tavsiya etiladi. Ushbu maqola ikki til va madaniyat o‘rtasida yanada samarali va to‘g‘ri aloqa o‘rnatishda, shuningdek, tarjima ishining sifatini oshirishda muhim yondashuvlar va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek, ingliz, til, farq, madaniyat, tarjima, ekvivalentsiya.

**Annotation:** This article will look at the main problems encountered in the translation process between Uzbek and English and ways to solve them. When translating from Uzbek into English or vice versa, translators face challenges such as grammar, lexical system, cultural differences, and different expressions of phrases. Differences in the grammatical structures of English and Uzbek languages complicate the translation process, as these languages have deviated significantly from each other in terms of syntax, word order, and the degree of rigid application of grammatical rules. The article emphasizes that to overcome these problems, translators require in-depth knowledge of language and culture. Methods such as the use of modern technologies and computer programs, the development of language learning, and the study of international experiences are also recommended to improve the quality of translation. This article outlines important approaches and directions in establishing more effective and correct communication between the two languages and cultures, as well as improving the quality of translation work.

**Keywords:** Uzbek, English, language, difference, Culture, Translation, equivalence.

**Аннотация.** В данной статье будут рассмотрены основные проблемы, возникающие в процессе перевода между узбекским и английским языками, и пути их решения. При переводе с узбекского на английский или наоборот переводчики сталкиваются с такими трудностями, как грамматика, лексическая система, культурные различия и различное выражение выражений. Различия в грамматических структурах английского и узбекского языков усложняют процесс перевода, так как эти языки довольно далеки друг от друга по синтаксису, порядку слов и степени строгого применения грамматических правил. В статье подчеркивается, что для преодоления этих проблем переводчикам необходимы глубокие знания языка и культуры. Также для повышения качества перевода рекомендуются такие методы, как использование современных технологий и компьютерных программ, развитие изучения языка, изучение международного опыта. В этой статье будут определены важные подходы и направления для более эффективного и правильного общения между двумя языками и культурами, а также для повышения качества переводческой работы.

**Ключевые слова:** узбекский, английский, язык, разница, культура, перевод, эквивалентность.

Tarjima — turli xalqlar, madaniyatlar va tillar o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkonini beruvchi ko‘prik. O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tarjima aloqalarni kengaytirib, ilmiy-texnik bilimlar, adabiyot va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishda yordam beradi. Ushbu maqola O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tarjima muammolarini chuqur tahlil qilib, ularning sabablari va yechimlarini ko‘rib chiqadi. Shu bilan birga, tarjima sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va boshqa yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tarjima jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, tilshunos va tarjimon olimlarning tadqiqotlari bu sohadagi dolzarb muammolarni yoritadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rishimiz mumkinki, tarjima faqat so‘zlarning to‘g‘ri ekvivalentini topishdan iborat emas, balki o‘quvchi uchun asl matnning ma‘nosini, madaniy jihatlarni va emotsional tusini yetkazish qobiliyatini ham talab qiladigan jarayondir. Tarjima jarayonida madaniy noziklik, lingvistik farqlar va pragmatik maqsadlarni hisobga olish kerak.

Xususan, o‘zbek va ingliz tillaridagi madaniy farqlar ko‘plab iboralar va bayramlar, odatlar va ramzlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish imkonini bermaydi. Masalan, ingliz tilidagi “Halloween” kabi bayramni yoki “spill the beans” iborasini o‘zbek tiliga moslashtirish uchun qo‘shimcha izoh yoki madaniy ekvivalentlardan foydalanish albatta zarur. Tarjimada ekvivalentsiyani saqlash, ya‘ni asliyatdagi ma‘noni imkon qadar to‘g‘ri ifodalash muhim va bu holat o‘zbek tilining ko‘p jihatlari



ingliz tilidagi zamonlar, modal fe'llar va maqollardan farqlanishini hisobga olishni talab qiladi va bu to'g'risida o'zbek va ingliz olimlarning bir qancha fikrlari bor, masalan;

Ziyodulla Qayumov - "O'zbek tili grammatika qoidalari va Ingliz tili tarjimasi" kitobida o'zbek tilidagi grammatik qoidalar va ularning ingliz tiliga tarjima jarayonidagi ta'siri haqida fikr yuritadi. U o'zbek tilining analitik va ingliz tilining sintetik tabiati tarjima jarayonida turli muammolarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Misol uchun, o'zbek tilidagi "Men kitob o'qiyapman" va "Men kitobni o'qiyapman" jumalari orasidagi farqlar, ingliz tilida "I am reading a book" sifatida bir xil tarjima qilinishi haqida aytib o'tganlar va bundan tashqari

Abdusaid Ko'chimov - "Lingvistik farqlar va ularning tarjimaga ta'siri" kitobida ham o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi lingvistik farqlar haqida so'z yuritib, bu farqlarning tarjimada qiyinchilik tug'dirishi haqida yozgan. U ingliz tilida mavjud bo'lgan zamon shakllari va modallik o'zbek tilida muqobil shakllarda ifodalanishini ta'kidlaydi. Masalan, ingliz tilidagi "I would have gone" jumlasini o'zbek tiliga "Men borgan bo'lardim" kabi tarjima qilinadi, ammo bu konstruktsiya o'zbek tilida kam ishlatiladi va ingliz tilidagi aniq o'tmishdagi imkoniyatni to'liq aks ettirmaydi. Ko'chimov bu kabi farqlar tarjimada pragmatik yo'qotishlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

O'zbek va ingliz tili tarjima muammolari haqida faqat o'zbek olimlari so'z yuritmay, balki ingliz olimlari ham o'z kitoblarida bu haqida fikr yuritgan masalan,

Maykl Kronin - "Tarjimaning madaniyatga moslashuvi" kitobida tarjimaning madaniy moslashuvi zarurligini ta'kidlab, globallashtirish va tarjima jarayonidagi madaniyatlararo tafovutlar haqida fikr bildiradi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada bu moslashuv zarur, chunki o'zbek tiliga inglizcha matnni tarjima qilishda har ikki madaniyat o'rtasidagi farqlarni hisobga olish talab etiladi. Masalan, ingliz tilidagi "coffee break" iborasini o'zbek madaniyatiga moslashtirishda "tanaffus" yoki "choy ichish uchun tanaffus" kabi iboralar ishlatilishi mumkin, chunki o'zbek madaniyatida bu tushuncha "qahva" emas, balki "choy" bilan bog'lanadi. Bunda esa ikki millat o'rtasidagi madaniy tafovutlar bor ekanligini ko'rish mumkin.

Faqatgina Maykl Kronin emas bundan tashqari Roman Yakobson - "Tilshunoslik yondashuvi va tarjima" kitobida tarjimada "semantik va pragmatik jihatlarni" tushuntirib, har bir tilning o'ziga xos ifodaviy vositalari borligini aytadi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada bu jihat katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida zamon, modal fe'llar va maqollar yordamida ifodalanadigan ma'nolar o'zbek tilida ko'pincha qo'shimcha so'zlar bilan ifodalanadi yoki o'zgaradi. Masalan, ingliz tilidagi "It might rain" jumlasini o'zbek tilida "Ehtimol, yomg'ir yog'adi" tarzida tarjima qilinadi, bu yerda modal fe'lning o'zbek tilidagi muqobilini topish talab etilishi haqida

fikr bildiradi. Olimlar ham ingliz va o'zbek tilining strukturasidagi farqlarga alohida to'xtalib o'tganligi ko'rinib turibdi.

Til strukturasidagi farqlar-O'zbek va ingliz tillari grammatik jihatdan turli oilalarga mansub bo'lib, ularning tuzilishi sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz tili german tillar oilasiga kirgan bo'lsa, O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub. Bu farq ayniqsa, so'z tartibi va jumla tuzishda yaqqol seziladi. Ingliz tilida an'anaviy ravishda SVO (Subject-Verb-Object) tartibi qo'llanadi, masalan: "She eats apples" (U olma yeydi). O'zbek tilida esa so'z tartibi SOV (Subject-Object-Verb) shaklida bo'lib, jumlaning "U olma yeydi" tarzida tarjima qilish tabiiy hisoblanadi. Tarjimonlar har bir jumlaning O'zbek tili grammatik qoidalariga moslashtirish uchun qo'shimcha ish qilishi kerak.

Yana bir grammatik farq, fe'llarning vaqt (tenses) va to'liqsizlik (aspect) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida vaqt shakllarining murakkab tizimi mavjud, masalan: Present Perfect, Past Perfect kabi shakllar mavjud. O'zbek tilida esa vaqt tushunchasi nisbatan sodda bo'lib, ayrim vaqt va holatlar aniq belgilab o'tilmaydi. Shuning uchun ba'zi ingliz jumalari O'zbek tiliga tarjima qilinganda vaqt va holat noaniqliklari paydo bo'lishi mumkin va tarjimon qo'shimcha tushuntirishlar kiritishga majbur bo'ladi.

So'z yasash usullari va fe'llar shakli: O'zbek tilidagi vaqt tushunchasidan farq qiladi. Bu tarjima qilingan matnda vaqtni va voqeaning amalga oshgan yoki oshmaganligini aniq ifodalashda qo'shimcha uslublardan foydalanishni talab qiladi. Misol uchun: "She has been studying" iborasini o'zbek tiliga o'g'irganda vaqt va davomiylik tushunchalarini aniq ifodalash qiyinchilik tug'diradi.

O'rin va holatlarning foydalanishi esa o'zbek tilida ko'proq shakl va ko'makchilar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "She is sitting on the chair" jumlasini o'zbek tilida "U stulda o'tiribdi" deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi "on" predlogining ma'nosini o'zbek tiliga o'xshash tarzda ifodalash uchun "-da" qo'shimchasidan foydalaniladi. Bu kabi o'rin-holatlar tarjimada o'ziga xos muammo tug'diradi.

Hozirgi kunda tarjima jarayonida lug'aviy oxshashliklar yetishmasligi ham muammo bo'lib kelmoqda. O'zbek va ingliz tillarida lug'aviy o'xshashlik yetishmasligi tarjima jarayonini qiyinlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Bu qismda ayrim so'zlar va an tushunchalar uchun o'xshash so'zlarning yo'qligi hamda tarjimada yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqiladi, shu bilan birga tushunchalarning farqi va o'xshashlikning yo'qligini ham ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi tushunchalar o'zbek tilida mavjud bo'lib, ular ingliz tiliga o'girilganda aniqlik va to'g'ri ifodalanishni yo'qotadi. Misol uchun, "so'fi" yoki "shayx" kabi diniy yoki madaniy tushunchalarni ingliz tiliga o'g'irganda ularning to'g'ri ma'nosini yetkazish qiyinchilik tug'diradi. Ingliz tilida bu tushunchalar mavjud emasligi sababli,



tarjimon ularga yaqin soʻzlarni yoki atamalarni izlashga majbur boʻladi. Bu ish tarjimon uchun bazi hollarda qiyinlik qiladi, sababi izlagan texnik va ilmiy atamalarga mos malumot chiqmay qilishi mumkin.

Texnik va ilmiy sohalardagi koʻpgina atamalar ingliz tilida rivojlangan. Misol uchun, “blockchain” yoki “cloud computing” kabi atamalar oʻzbek tilida tushunarli shaklda ifodalanishi uchun tarjimon qoʻshimcha tushuntirish kiritishi kerak. Baʼzida, tarjimonlar bunday atamalarni tushunarlilik uchun oʻzbek tiliga moslashtiradi, lekin bu jarayonda tushunchaning ilmiy aniq ifodalanishi yoʻqolishi mumkin bu jarayonda tarjimon madaniy tafovutlar bilan ham tanishib chiqsa ehtimoldan holi boʻlmaydi.

Madaniyat va hayot tarzidagi farqlar tarjima jarayonida katta rol oʻynaydi. Masalan, oʻzbek tilidagi “mardikor” yoki “dasturxon” kabi soʻzlar ingliz tilida muqobil soʻzlarga ega emas, chunki bu tushunchalar Oʻzbekistonga xos ijtimoiy va madaniy vaziyatlarga bogʻliq. “Dasturxon yozish” iborasi oʻzbek madaniyatida mehmonlarni hurmat qilish va jamiyat bilan aloqani mustahkamlash belgisidir, ingliz tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilinganda bu mazmuni yoʻqotadi.

Shunga oʻxshash, ingliz tilidagi “Thanksgiving” tushunchasi ham oʻzbek tilida bevosita tarjima qilinishi qiyin, chunki u Amerika madaniyatiga xos anʼanaviy bayramlardan biridir. Ushbu farqlar tarjimonlardan ikki madaniyatni ham chuqur tushunishni va tarjimada ekvivalentlarni topishni talab qiladi. Bunday holatlarda baʼzan shunchaki soʻz tarjimasi yetarli boʻlmaydi, balki tushunchaning mazmunini qisqacha tushuntirish ham kerak boʻladi. Yani, eʼtiborsiz oʻtib ketmasdan tushunchaning mazmuniga ham urgʻu qaratish lozim oʻzbek tilida iboralar ham koʻp uchraydi. Frazologik iboralar har bir tilda oʻziga xos uslubda shakllangan boʻlib, ularni tarjima qilish katta mahorat talab qiladi. Iboralarning soʻzma-soʻz tarjimasi bu soʻzlar manosining yoʻqolishiga olib keladi.

Misol uchun, ingliz tilidagi “spill the beans” iborasini oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz “loviya toʻkish” tarzida tarjima qilinsa, u tushunarsiz boʻlib qoladi. Bu iborani “sirni oshkor qilish” kabi maʼnoda ifodalash kerak boʻladi, bu esa tarjimonning kontekstga asoslangan ijodiy yondashuvini talab etadi.

Oʻzbekcha iboralar va ularning ingliz tilidagi tarjimasiga qaraymiz. Oʻzbek tilidagi “koʻngli sovimoq” iborasi ingliz tilida “lost interest” tarzida tarjima qilinishi mumkin, ammo bu iboraning mazmuni koʻproq kengroqdir va tarjima jarayonida yoʻqolishi mumkin. Shu sababli, tarjimonlar iboralarning kontekstini saqlash uchun qoʻshimcha usullar qoʻllashlari kerak. Iboralarni tarjima qilishda tarjimonlar semantik va sintaktik murakkabliklarga ham duch kelishi mumkin.

Semantik va sintaktik murakkabliklar tarjima jarayonida keng tarqalgan muammolardandir. Tarjimada semantik tushunchalarning toʻgʻri aks ettirilishi juda muhim, chunki har bir soʻzning maʼnosi, konteksti va leksik xususiyatlari tarjimaning aniqligi va toʻgʻriligiga taʼsir qiladi. Semantika, yaʼni soʻzlarning maʼnosi, koʻplab

hollarda tarjimaga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tilidagi ba'zi so'zlar ingliz tiliga tarjima qilinsa, ular noaniqliklar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, "g'alaba" so'zining ingliz tilidagi ekvivalenti "victory" bo'lsa-da, uning madaniy konteksti va tilimizdagi qo'llanilishida farq bor. Tarjimonlar ba'zan so'zlarning ko'p ma'nolarini ham hisobga olib, kontekstga mos so'z tanlashga majbur bo'lishadi.

Sintaksisda esa, ya'ni so'zlarning o'zaro joylashuvi va ularning jumladagi roliga qarab tarjima qilishda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Ingliz tilidagi "There are five books on the table" jumlasini o'zbek tiliga tarjima qilganda, "Stolda beshta kitob bor" deb o'zgartirish mumkin, lekin jumlaning sintaktik tuzilishi har doim o'zgaradi. Ingliz tilida joylashgan ba'zi fe'llar O'zbek tilida ma'lum qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Tarjimonlar sintaktik murakkabliklarni kamaytirish uchun sintaksisni moslashtirish va ba'zan jumlaning qayta qurish zaruriyatini sezadilar bazi hollarda tarjimonlar polisemantizm va sinonimlardan ham foydalanadi

Polisemantizm, ya'ni bir so'zning bir nechta ma'nolarga ega bo'lishi, tarjima jarayonida qo'shimcha murakkabliklar keltiradi. Ingliz tilidagi ba'zi so'zlar bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa tarjimonda noaniqliklar tug'diradi

Misol uchun, ingliz tilidagi "bank" so'zi bir nechta ma'noga ega: bir tomondan, "bank" moliya muassasasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, "bank" daryo bo'yidagi sohilni anglatadi. O'zbek tilida bu ikki ma'no bir xil so'z bilan ifodalanmaydi va tarjimonlar har bir kontekstga mos keladigan tarjima variantlarini tanlashlari kerak. O'zbek va ingliz tilida sinonimlar muhim hisoblanadi.

Sinonimlar — bir xil yoki yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlar — tarjimada ba'zan muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilidagi ba'zi so'zlar, masalan, "keng", "yog'ish" va "katta" o'zaro sinonimlardir, lekin har birining qo'llanilish holatlari boshqacha bo'lishi mumkin. Ingliz tilida ham sinonimlar ko'p, masalan, "happy" va "content" so'zlari bir xil ma'noga ega, lekin ularga o'xshash so'zlar ishlatilganda kontekstga qarab ularning his-tuyg'ularni qanday aks ettirishi farq qiladi. Tarjimonlar

tarjimaning stilistik jihatlariga diqqatini qaratishi zarur. Chunki, tarjimaning stilistik jihatlari ham juda muhim. Tarjimon faqat grammatikani emas, balki matnning estetik jihatini, uslubini ham inobatga olishi kerak. Tarjima uslubidagi farqlar tilga xos uslub va tildagi ifoda vositalariga asoslanadi. Ingliz tilida matnning rasmiy va norasmiy uslublari aniqroq ajratilgan bo'lsa, O'zbek tilida rasmiy va norasmiy uslublarning o'rtasidagi farqni aniqlash ko'proq kontekstdan kelib chiqadi. Bu esa ingliz va o'zbek tili uslublari strukturali bo'ladi. Ingliz tilidagi rasmiy matnlar odatda yuqori darajada strukturali va rasmiy bo'ladi, shuningdek, adabiy tilda o'zgacha sintaktik qurilmalar qo'llaniladi. O'zbek tilida esa matnning uslubi ko'proq tanlangan so'zlar orqali anglatiladi va ba'zi so'zlar qisqartirilgan yoki jamlash usuli bilan ifodalangan bo'lishi



mumkin. Tarjimonlar matnning aniq uslubini saqlab qolish uchun, uning ohangini, orfografik xususiyatlarini va madaniy kontekstini hisobga olishlari lozim.

Tarjimaning auditoriya va kontekstga bog‘liq bo‘lishi kerak, chunki tarjima jarayoni auditoriya va kontekstga qarab o‘zgaradi. O‘zbek va ingliz tillari orasidagi tarjimadagi farqlar faqat grammatikani emas, balki auditoriyaning ehtiyojlarini ham inobatga oladi. Agar tarjima ilmiy maqola yoki adabiy asar uchun bo‘lsa, tarjimon o‘z tilida yuqori darajadagi lug‘aviy va grammatik aniqlikni saqlashi kerak. Ammo, agar tarjima ijtimoiy media yoki reklama uchun bo‘lsa, unda tarjima ko‘proq qisqacha, o‘ziga xos uslubda va auditoriya e‘tiborini jalb qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Tarjimon har bir holatda tilni qanday ishlatishni bilishi zarur. Tarjima qancha yaxshi bo‘lishini xohlagan tarjimon

Tarjimada zamonaviy texnologiyalar va metodlardan ham foydalanish oz ornida yuqori natijani berishini biladi.

Yuqoridagi masalalarga qo‘shimcha ravishda, zamonaviy texnologiyalar va metodlar tarjima jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Tarjima qilishda sun‘iy intellekt (AI), mashina o‘rganish va neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari haqida so‘z yuritar ekanmiz mashina tarjimasini misol qilib qaraydigan bo‘lsak Google Translate, DeepL va boshqa mashina tarjimasi tizimlari tarjima jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradi. Bu tizimlar grammatika va leksikaga e‘tibor berib, tez va samarali tarjima qilish imkonini beradi. Biroq, ular madaniy kontekst va figurativ ma'nolarni to‘g‘ri tushunishdagi cheklovlar tufayli ba'zi holatlarda xato qilishi mumkin. Bundan tashqari neyron tarmoqlari mashina o‘rganish va neyron tarmoqlarni ishlatish tarjima sifatini yanada oshirishi mumkin. Bu texnologiyalar tilni yanada chuqurroq o‘rganish, kontekstga mos ravishda tarjima qilish va so‘zlarning ma'nolarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bu orqali, tarjimaning yanada to‘g‘ri va aniq bo‘lishi ta'minlanadi.

Misol: Ingliz tilidagi "I am feeling blue" iborasi Google Translate'da "Men ko‘k his qilyapman" deb tarjima qilinishi mumkin, lekin bu ibora aslida "Ko‘nglim xira" degan ma'noni anglatadi. Bu yerda mashina tarjimasi semantik farqni his qila olmaydi va noto‘g‘ri tarjima beradi.

O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tarjima jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega, chunki har ikki til madaniyat va tilshunoslik jihatidan o‘z farqlariga ega. Grammatik, semantik, leksik, va stilistik murakkabliklar, shuningdek, madaniy tafovutlar tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Tarjimonlar bu muammolarni hal qilish uchun kontekstni yaxshi tushunishi, so‘zlarning ma'nolarini aniq belgilashlari va madaniy farqlarni hisobga olishlari kerak.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, mashina tarjimasi va sun'iy intellekt, tarjima jarayonini soddalashtirsa-da, inson tafakkuri va ijodiy yondashuv hamon muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, eng yaxshi natijaga erishish uchun inson tarjimasi

va texnologiyalarni uyg'unlashtirish zarur. Shundagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baker. M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation (2nd ed.). Routledge.
2. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
3. Nida, E. A. (2001). Language and Culture in Translation. John Benjamins Publishing Company.
4. House, J. (2015). Translation as Communication Across Languages and Cultures. Routledge.
5. Bell. R. T. (1991). Translation and Translating: Theory and Practice. Longman.
6. Larson, M. L. (1998). Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. University Press of America.